

**O‘zbekiston Respublikasining “Mediatsiya to‘g‘risida”gi qonuni va xalqaro
huquqiy hujjatlar o‘rtasidagi farqlar va kamchiliklar**

Xamdamov Javohirbek Sherzodbek o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti Xususiy huquq fakulteti 4-kurs talabasi.

ANNOTATSIYA Maqolada mediatsiyaning jamiyatdagi ro‘li va uning afzaliklari bo‘yicha fikr mulohazalar ketadi. Mediatsiyaning O‘zbekiston Respublikasi va xorijiy mamlakatlar huquqlari o‘rganiladi va farqlari taxlil qilinadi. Ushbu maqolada xorijiy mediatsiyaning milliy qonunchiligimizdagi mediatsiyadan qanchakil keng qo‘lamligini turlarini va qanday nizolarda mediatsiya qo‘lashlarini keltirib o‘tilgan. Mediatorga qo‘yilgan talablar va oilaviy mediatorlar haqida so‘z yuritilgan. Mediatorlarni tayorlash kurslari ham keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Mediatsiya, mediator, Professional mediator, noprofessiona mediator, Anglo-sakson, Advokatlik tajribasi, Kelishuv bitimi,

KIRISH Yurtimizda fuqarolarning shu bilan birga yurudik shaxslarning buzilgan huquqlari va ularning huquqlarini himoya qiluvchi sud huquq tizimi rivojlanib bormoqda. Ushbu sud huquq tizimga yordamlashuvchi yana bir tizim tashkil qilingan bo‘lib “Hakamlilik sudlari to‘g‘risida” gi 16.10.2022 yildagi qonun qabul qilingan. Ushbu qonun qabul qilingandan so‘ng hakamlilik sudlari keng tarqala boshladi shu bilan birga fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari o‘rtasidagi nizolarni hal qilish bo‘yicha nodavlat organi bo‘yicha o‘z vazifasini boshlagan. Shundan so‘ng, butun jahonda avj olgan mediatsiya faoliyati bo‘chiya 2018-yil 3-iyulda “Mediatsiya to‘g‘risida”gi qonun qonun qabul qilindi. Ushbu qonun qabul qilingandan so‘ng nizolarni muqobil usullari doirasiga kirdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ushbu maqolani ochib berish borasida bir necha mamlakatlar “Mediatsiya to‘g‘risida”gi qonunlarini va milliy qonunchiligimizdan “Mediatsiya to‘g‘risida”gi qonun, Fuqarolik protsessual kodeksi, “Davlat boji to‘g‘risida”gi qonun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 12.03.2019-yildagi tegishli 4236-sonli Qarori, “Sud hujjatlari va boshqa organlari hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi qonun, “Advokatura to‘g‘risida”gi qonunlardan kelib chiqqan holda tahlil qilindi. Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b I.M.Salimovaning maxsus kitoblari, huquqshunos F.Otaxonov, yuridik fanlari doktori Q.Matkarimovlarning ilmiy ishlari va maqolalaridan keng foydalanilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yurtimizda va butun jahon hamjamiyatida fuqarolar va yuridik shaxslarning buzulgan huquqlarini himoya qilish uchun eng samarali yo‘llari bir necha turlarga bo‘linadi. Shulardan biri, ya‘ni sudgacha bo‘lgan vaziyatda muammoni hal qilishning mediatsiya usuli keng tarqalgan usuldir. **Mediatsiya**-kelib chiqqan nizolarni taraflar o‘zaro maqbul qarorga erishishi uchun ularning ixtiyoriy roziligi asosida mediator komagida hal qilish usuli hisoblanadi²². Endi ea mediator kimligini bilib o‘tamiz, **Mediator** — mediatsiyani amalga oshirish uchun taraflar tomonidan jalb etiladigan shaxs. Mediatsiyaning asosiy ma‘nosi boshqa tillardan tarjimasi qilinganda “**vositachilik**” degan ma‘noni bildiradi. Mediatsiyaning qadimgi qo‘lanilishi bo‘yicha turli xil nazariyalar mavjud bo‘lib: Jumladan Qadimgi Rimda savdo sohasidagi nizolar asosan “**vositachi**” (**medium**) ishtirokida hal qilingan. O‘z navbatida, Yustinian kodeksida ham nizolarni vositachi ishtirokida hal qilish mumkinligi mustahkamlangan. Zamonaviy mediatsiya tushunchasi esa, XX asrning ikkinchi yarimidan boshlab

²² Nizolarni hal qilishning muqobil usulari/ O‘quv qolanma. Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b I.M.Salimova. – Toshkent: TDYU, 2022. – 208 bet.

AQSh, Avstraliya va Buyuk Britanida shakllana boshlagan. Dastlab asosan oilaviy nizolarni hal qilishda keng foydalangan.²³

Xalqaro normalardan Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) nizomida ham o'z ifodasin topgan. Ushbu nizomning VI bob "nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish" masalasi qo'yilgan bo'lib 33-moddasida quydagi yechim berilgan, Har qanday nizoda qatnashuvchi tomonlar, bu nizoning davom etishi xalqaro tinchlik va xavfsizlikning saqlanishiga tahdid soladigan bo'lsa, avvalo, nizoning muzokaralar yuritish, tekshirish, vositachilik, yarashish, arbitraj, sud yo'li bilan hal etish yoki mintaqaviy organlar yo bitimlarga murojaat qilish yoki o'z xohishlariga ko'ra, boshqa tinchlik vositalari bilan bartaraf qilishga intilishlari lozim.²⁴

O'zbekiston Respublikasida "Mediatsiya to'g'risida"gi qonun 2018 yil 28-iyunda qabul qilingan. Ushbu qonun qabul qilongandan keying kichik nizolar mediatsiya ya'ni kelishuv yo'li bilan hal qilinadigon bo'ldi. Ushbu qonuning 5-moddasida Mediatsiyasning asosiy prinslariga keltirilgan bo'lib ular quydagilardan iborat, **maxfiylik, ixtiyorilik, taraflarning hamkorligi va teng huquqliligi, mediatorning mustaqilligi va xolisligi** prinsiplari asosida amalga oshirilishi keltirilgan.

Ushbu qonunning qabul qilinishida davlat sudlari va nizolashayotgan taraflarga ham katta qulayliklar va afzaliklar yaratilgan.

- sudlarda ish hajmi qisqarishi
- tanlovda erkinligi
- taraflarning qabul qilingan qarorga roziligi
- maxfiylikni ta'minlash
- nizoni ko'rib chiqishda ketadigon vaqt
- nizoni hal qilishda korrupsiyaning mavjud emasligi

²³ Nizolarni hal qilishning muqobil usuluri/ O'quv qolanma. Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b I.M.Salimova. – Toshkent: TDYU, 2022. – 208 bet.

²⁴ 1945-yil 26-iyunda San Fransiskoda Birlashgan Millatlar Konferentsiyasining Xalqaro Tashkilot tuzish bo'yicha yakuniy majlisida imzolangan va 1945 yilning 24-oktyabrida kuchga kirgan

- to‘lanadigon boj
- kam sarf harajat
- mediatsiyada g‘olib va mag‘lub taraf bo‘lmaydi

Huquqshunos, Yuridik fanlar doktori F.Otaxonov nizolarni davlat sudlarida hal etish bilan taqqoslagandagi mediatsiyaning ustun jihatlarini keltirib o‘tkan,

Birinchidan, huquqlarni davlat sudlarida himoya qilishning sud shaklidan mediasiya jarayonining asosiy farqi mediatorning nizoning mohiyatiga nisbatan o‘z-o‘zidan hech qanday qaror qabul qilmasligi hisoblanadi. Mediasiya doirasidagi barcha qarorlar faqat taraflarning o‘zaro roziligi asosida qabul qilinadi. Sudda nizolar sud’yalar tomonidan taraflar uchun majburiy bo‘lgan va majburiy tartibda ijro qilinishi mumkin bo‘lgan qarorlar chiqarish yo‘li bilan tugatiladi.

Ikkinchidan, sudlarda ishlarning ko‘pligi va ishlarni ko‘rib chiqish oylab cho‘zilganligi tufayli mediasiya orqali nizolarni hal etish vaqtning tejalishiga olib keladi, ko‘pincha bir ish bo‘yicha nizolar ikkinchi va uchinchi instansiyada davom etadi, yutqazgan taraf sud hujjatlari ustidan shikoyat qiladi. Yuridik yordam olishga sarflanadigan xarajatlar sud jarayonining davom etish muddati bilan uzviy bog‘liq bo‘lganligi tufayli nizolarni tezkorlik bilan hal qilinishi mediasiyaning tejamkorligini bildiradi.

Uchinchidan. mediasiya o‘zgaruvchan jarayon hisoblanib, taraflar nizoni ko‘rib chiqish jarayonini o‘z xohishiga ko‘ra tartibga solishlari mumkin, ularga muammoni muhokama etish uchun erkin sharoit yaratiladi. Shu bilan birga mediatorning o‘zi ham taraflarga nizoni hal qilish yo‘lini topishga yordam beradi.

To‘rtinchidan, sud ishining ommaviyligi, oshkoraligi va ochiqligidan farqli ravishda mediasiya jarayoniga maxfiylik xosdir. Taraflardan olingan

barcha ma'lumotlar, «devordan tashqariga chiqmaydi» va mediatorning faoliyati tugagandan so'ng uning barcha yozuvlari yo'q qilinishi lozim.

Beshinchidan, sud qarorlari har doim ham taraflar istagan oqibatga olib kelmaydi (kamida bir taraf ishning natijasidan noroziligicha qoladi) va bu holat kelajakda sud qarorlarini nafaqat ixtiyoriy bajarishdan bosh tortilishiga, balki bajarishga majburiy to'sqinlik qilinishiga olib keladi. Mediasiya davomida barcha qarorlar taraflarning ikki tomonlama kelishuviga ko'ra qabul qilinadi va ikkala taraf o'zlari tomonidan birgalikda qabul qilingan qarorlarini ixtiyoriy ravishda bajarish majburiyatini oladilar.

Oltinchidan, mediasiyaning rad etib bo'lmaydigan ustunliklari ichida taraflar o'rtasidagi yaxshi, do'stona munosabatlarni saqlab qolish hisoblanadi. Mediasiya ayniqsa, mulkni taqsimlash, er-xotinlar, ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi kelishmovchiliklarni bartaraf etish, mehnat nizolarini hal etish bilan bog'liq muammolarni hal etishda samarali hisoblanadi.²⁵

Taraflar istalgan paytda mediyatsiyani qo'lashi mumkin, lekin bir istisno holatlari mavjud bo'lib ushbu holat sudda ko'rilayotgan nizo bo'yicha sudning qaror qabul qilgunicha (maslahat honaga kirgunicha) qo'lashlari mumkin.

Mediatsiyaning yana bir afzalik jihati shundaki O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi va O'zbekiston Respublikasining "Davlat boji to'g'risida"gi qonunida ham to'langan davlat bojini qaytarish masalasi to'liq ko'rsatib o'tilgan bo'lib, qonunning 18-moddasi 9-bandida va O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida"gi qonunning 17-moddasi *oltinchi* qismida ham quydagicha keltirilgan; agar taraflar o'rtasida mediativ kelishuv tuzilgan bo'lsa, ariza ko'rmasdan qoldirilganda davlat bojini qaytarish ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari

²⁵ <https://chamber.uz/uzk/news/6753>

to'g'risida» 12.03.2019-yildagi tegishli 4236-sonli Qaroriga asosan, 2019 yil 1 apreldan sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini majburiy ijro etish jarayoniga mediasiya instituti joriy etildi.

Misol: Farg'ona viloyati Farg'ona shaharda istiqomat qiluvchi *****ga tegishli uyga, undiruvchi *****vani voyaga yetmagan farzandlari bilan birga majburiy tartibda kiritib qo'yish bo'yicha MIBning Farg'ona shahar bo'limi ijro harakatlarin olib boradi va qarzdor ijro hujjatlari talabini bajarish, nzilai holatni hal qilish va taraflarning hamkorligi asosida o'zaro maqbul qarorga erishish maqsadida professional mediatorga murojat qilishadi. Shundan so'ng ijro jarayonida mediator ishtirokida qarzdor va undiruvchi o'rtasida mediativ kelishuv tuzilganligi uchun, ijro hujjati O'zbekiston Respublikasi "Sud hujjatlari va boshqa organlari hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi qonunning 37-moddasi 2-qism 2¹-bandiga asosan tugatildi.

Mediatsiyaning bir necha guruhlariga ajratgan holda ko'rishimiz mumkin. Nizolarning turlari bo'yicha va mediatorlarnig sonlari bo'yicha. Nizolarning turlarga keladigan bo'lsak jinoyat huquqiy nizolardan tashqari barcha nizolarda mediativ kelishuv qilish mumkin. Masalan; mehnat, oilaviy, fuqarolik va h.k.

Hozirgi kunla kelib butun jahonda mediatsiyaning oilaviy ko'rinishi keng tarqalmoqda. Ushbu oilaviy mediatsiya online shakilda olib boriladigan kelishuv hisoblanib, nizolashayotgan taraflarga iqtisodiy jihatdan va vaqt nuqtai nazardan tejamkorona hal etish imkonini beradi.

Mediatorning soniga qarab ham ajratish mumkin, **yakka, ikki va undan ortiq** mediator ishtirokida o'tkaziladigan mediatsiya turlari mavjud.

Olilaviy munosabatlarda nizolarni hal etishning muqobil usullarini ishlab chiqish va joriy etishning hal qiluvchi omillaridan biri oila markazlari advokatlarining ushbu usullarga munosabati, ularning oiladagi konfliktlarni boshqarish tizimini yaratishdagi ishtiroki hisoblanadi. Germaniya advokatlar

kasb etikasiga asosan advokatlar qonunni haqiqiy vaziyatlarda qo'llash uchun o'qitilishi tushuntirilgan. Advokatlar faoliyat sohasiga qarab mavjud vaziyatlarda professional mediatorlik faoliyatini ham amalga oshiradi. Ular nizo tomonlari va oila a'zolari, hech kimni ortda qoldirmasdan, barcha ishtirokchilarga mos keladigan yechim topishga mas'ul hisoblanadi. Advokat mediator sifatida sud muhokamasidan farqli o'laroq, uchinchi shaxs tomonlarningning shaxsiy manfaatlarini hal qilmaydi.²⁶

O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi qonunning 3-moddasi 3-qismning 3-bandiga asosan patent vakili va mediator sifatidagi faoliyat shug'ulanishi mumkinligi belgilanishi mumkin.

Mediatsiyaning horigi kundagi eng zamonaviy ko'rinishlari anglo-sakson huquqi oilaiga mansub davlatlarda vujudga kelgan.

Kanadada oilaviy nizolarni hal qilishda mediatorlardan advokatlik tajribasi talab etiladi. Ko'plab oilaviy nizo taraflari advokatlarni nizoni hal qilishda ular tomonida taklif etilgan shartlarni qabul qilishini bildirgan. Advokatlar sudlarda oilaviy nizolarni hal qilishdan ko'ra sudga qadar taraflarni kelishuvga erishtrish tajribasini qo'llaydi. Bu kelishuvni amalga oshirishda mediator sifatida ishtirok etadi.

O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida"gi qonunida Mediatorning faoliyati professional yoki noprofessional asosda amalga oshirilishi mumkinligi hamda ularga qo'yilgan talablar belgilangan. Unga ko'ra Professional asosdagi mediator faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan mediatorlarni tayyorlash dasturi bo'yicha maxsus o'quv kursidan o'tgan, shuningdek Professional mediatorlar reyestriga kiritilgan shaxs amalga oshirishi mumkin. Ushbu qonunning 12-moddasida, Noprofessional asosdagi mediator faoliyatini yigirma besh yoshga to'lgan va mediator vazifalarini bajarishga rozilik bergan shaxs amalga oshirishi mumkin.

²⁶ <https://cyberleninka.ru/>

Noprofessional asosdagi mediator faoliyatini amalga oshiruvchi shaxs ham O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan mediatorlarni tayyorlash dasturi bo'yicha maxsus o'quv kursidan o'tishi mumkin. Qonunda kimlar mediatorlik faoliyati va mediator bo'lishi mumkin emasligi aniq ko'rsatib o'tilgan ya'ni: davlat vazifalarini bajarish uchun vakolat berilgan yoki unga tenglashtirilgan shaxs, bundan notariuslar mustasno, muomala layoqati cheklangan yoki muomalaga layoqatsiz deb topilganligi to'g'risida sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori mavjud bo'lgan shaxs, sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxs, o'ziga nisbatan jinoiy ta'qib amalga oshirilayotgan shaxslar mediatorlik faoliyatini olib borishi mumkin emas.

Germaniya qonunchiligini tahlil qilsak, Germaniyada 2012 yilda 21-iyulda qabul qilingan "Mediatsiyani va nizolarni suddan tashqari hal qilishning boshqa tartib-taomilarini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi qonun qabul qilingan. Ushbu qonunda **mediator** deganda taraflarni mediatsiya tartib-taomili bo'yicha olib bordigan, nizoni hal qilish vakolatiga ega bo'lmagan mustaqil va xolis shaxs tushuniladi. Germaniya tajribasidan kelib chiqadigan bo'lsak. Germaniyada "Sud mediatsiyasi", "Sud huzuridagi mediatsiya", "Suddan tashqari mediatsiya turlari mavjud bo'lib, o'z nomidan ko'rinib turibtki sud tomonidan, sudning taklifiga va shartnoma asosida mustaqil mediator tomonidan amalga oshiriladi.

Qo'shni Qozog'iston Respublikasida ham O'zbekiston Respublikasi kabi mediatsiya Fuqarolik protsessual kodeksi va mediatsiya to'g'risidagi qonunlar bilan tartibga solingan. Qozog'iston Respublikasining FPK 179-moddasi, O'zbekiston Respublikasining FPK 44-moddasida fikrlar bir xil bayon etilgan bo'lib quydagicha keltirilgan: Taraflar sud protsessining har qanday bosqichida ishni kelishuv bitimi tuzish yoki birinchi instansiya sudida sud alohida xonaga (maslahatxonaga) sud hujjatini qabul qilish uchun chiqquniga qadar mediativ kelishishni so'rab murojaat qilishga haqli.

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik va Iqtisodiy prostessual qonunchiligida yarashtirish sifatida kelishuv bitimi bilan mediatsiyani chalkashtirib yuborish holatlari ko‘p uchrashi mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 17 iyundagi “Nizolarni muqobil hal etishning mehanizmlarini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4754-sonli qarorida²⁷ nizolarni muqobil usulda hal etish bilan shug‘ulanuvchi Mediatsiya markazi va Nizolarni muqobil usulda hal etish markazi tashkil etlagan.

O‘zbekiston Respublikasida mediatorlarni tayorlash bo‘yicha bir necha maxsus o‘quv kurslari mavjud bo‘lib ular quydagilar:

1. Mediatsiya markazi;
2. Professional mediatorlar, hakamlik sudlari va halqaro arbitrajlarining o‘zaro birlashuviga asoslangan – “Nizolarni maqbul usulda hal etish” markazi
3. Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi;
4. Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Yuridik kadrlarni xalqaro standartlar bo‘yicha professional o‘qitish markazi tomonidan tashkil etiladi

Fuqarolar mediator bo‘lishni istagan fuqarolar ushbu markazga bevosita o‘zlari yoki elektron tarzda murojaat qilishlari mumkin. Ushbu maxsus kursda 72 soatdan ko‘p bo‘lmagan shartnomas asosida kunduzgi shaklda o‘qitiladi.

Xulosa

Yuqorida aytib o‘tilganidek mediatsiyani boshqa xorij davlatlari va milliy qonunchilgimiz bilan taqqosladik, bundan ko‘rinib turibiki mediatorlarga qat’iy bir to‘liq standartlar qo‘yilmaganligini kuzatik. Shundan kelib chiqadiki oilaviy nizolarni hal qilishda mediatsiyani qo‘lash farq qiladi. Dunyoning eng rivojlangan davlatlarida mediatorninf faoliyati qononlar bilan tartibga solongan

²⁷ <https://lex.uz/docs/4859436>

bo'lishi mumkin. Mening fikrimcha "Mediatsiya to'g'risida"gi qonunning 12-moddasida mediatorga qo'yilgan talablarni yanada kengaytirish kerak deb hisoblayman, chunki u yerda mediatorning faoliyatini professional va noprofession asosda amalga oshirish keltirilgan. Bundan kelib chiqadiki ularga qo'yilgan qat'iy bir talab yo'q. Shunday ekan ushbu qonunimizda boshliqlar va ushbu moddani yanada to'ldirish kerak deb o'ylayman.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Fuqarolik protsessual kodeksi.
2. O'zbekiston Respublikasida "Mediatsiya to'g'risida"gi qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining "Davlat boji to'g'risida"gi qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasi "Sud hujjatlari va boshqa organlari hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi qonuni.
5. O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi qonun.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» 12.03.2019-yildagi tegishli 4236-sonli Qarori.
7. Nizolarni hal qilishning muqobil usulari/ O'quv qolanma. Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b I.M.Salimova. – Toshkent: TDYU, 2022. – 208 bet
8. [1945-yil 26-iyunda San](#) [Fransiskoda](#) Birlashgan Millatlar Konferentsiyasining Xalqaro Tashkilot tuzish bo'yicha yakuniy majlisida imzolangan va 1945 yilning [24-oktyabrida](#) kuchga kirgan
9. <https://chamber.uz/uzk/news/6753>
10. <https://cyberleninka.ru/>
11. <https://lex.uz/docs/4859436>